

**JADIDLAR G'OYALARINING ZAMONAVIY PEDAGOGIK
KOMPETENSIYALAR BILAN UYG'UNLIGI**

Mehmonova Chinora Ro'ziboy qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Ilmiy rahbar: p.f.f.d (PhD),

prof. Olimov T.X

Mehmonovachinora9@gmail.com

Telefon nomer: +99894 787 23 06

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi jadidlarning pedagogik qarashlari, “yangi usul” maktabi tamoyillari va hozirgi zamonaviy pedagogik kompetensiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari jadidlar merosining hozirgi ta'lim sifatini oshirishda muhim metodologik asos bo'la olishini ko'rsatadi.

Аннотация: В данной тезисной работе анализируется взаимосвязь между педагогическими взглядами джадидов, принципами «новометодной» школы и современными педагогическими компетенциями. Результаты исследования показывают, что наследие джадидов может служить важной методологической основой для повышения качества современного образования.

Annotation: This thesis analyzes the interrelationship between the pedagogical views of the Jadids, the principles of the “new method” schools, and modern pedagogical competencies. The research results demonstrate that the legacy of the Jadids can serve as an important methodological foundation for improving the quality of contemporary education.

Kalit so'zlar: Jadidlar, kompetensiya, pedagog, innovatsiya, ta'lim islohoti

Ключевые слова: джадиды, компетенция, педагог, инновация, образовательная реформа.

Keywords: Jadids, competence, pedagogue, innovation, educational reform.

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati o'zbek ta'limi tarixida tub burilish yasagan. Ijtimoiy-ma'rifiy oqim sifatida e'tirof etiladi.

Jadid ma'rifatchilari o'z davri uchun mutlaqo yangi pedagogik qarashlarni ilgari surib, maktabni isloh qilish, o'qituvchini bilimli va zamonaviy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'yganlar.

Jadid ma'rifatchilari zamonaviy o'qituvchining sifatlarini aniq belgilab berganlar. Fitrat o'qituvchini “yangi jamiyatni yaratadigan kuch” deb atagan bo'lsa, Abdulla Avloniy o'qituvchilik kasbini “eng sharafli va eng ma'uliyatli kasb” deb ta'riflab, muallimning axloqiy pokligi, nutq madaniyati, ma'naviy yuksakligi, bilimdonligi va yosh avlodga mehribon munosabatda bo'lishi zarurligini takidlaydi. U pedagog shaxsini millatning kelajagini tarbiyalovchi ulkan kuch sifatida ko'radi. Mahmudxo'ja Behbudiy esa o'qituvchini eng avvalo ma'rifat targ'ibotchisi sifatida ko'radi va “muallim millatning

20-Yanvar, 2026-yil

kelajagini shakllantiradi” deya takidlar ekan, o‘qituvchining faqat dars beruchi emas balki taraqqiyot yo‘lidagi faol yetakchi sifatidagi obrazini chizadi. Bu fikrlarning barchasi bugungi kompetensiyaviy ta’lim yondashuvi bilan mos keladi.

Bugungi ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor bo‘lib, pedagogik, metodik, kommunikativ, axborot texnologiyalari, innovatsion va ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar o‘qituvchining asosiy kasbiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Jadidlar ilgari surgan tamoyillar aynan shu kompetensiyalar bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Jadidlarning “usuli jadid” metodikasi — fonetika asosida o‘qitish, ko‘rgazmali darslar, tajribaviy o‘qitish kabi yondashuvlar bugungi interfaol ta’lim metodlariga juda yaqin. Ular o‘z davrida bosmaxona, gazeta, xarita, globus, laboratoriya jihozlaridan foydalanib, hozirgi AKT kompetensiyasining tarixiy asosi bo‘lgan tajribalarni yaratganlar.

O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar — Milliy o‘quv dasturi, kompetensiyaviy yondashuv, AKTni joriy etish, o‘qituvchilar malakasini oshirish — barchasida jadidlar g‘oyalari bilan bog‘liq jihatlar mavjud.

Ta’limni modernizatsiya qilish

Jadidlar ta’limni yangilash zarurligini ta’kidlagan. Bugungi islohotlar aynan shuni davom ettirmoqda.

Pedagog maqomining oshirilishi

Jadidlar muallim sha’ning yuksak bo‘lishini talab qilgan. Hozirgi islohotlarda pedagoglarning ijtimoiy maqomini oshirish masalasi ustuvor.

O‘quv dasturlarining yangilanishi

Jadidlar fanlar tarkibini modernizatsiya qilgan. Bugungi ta’limda ham mazmun yangilanishi davom etmoqda.

Fan-texnika va axborot texnologiyalari

Jadidlar o‘z davridagi texnik vositalarni darslarga jalb qilgan. Hozir bu jarayon AKT asosida takomillashgan.

Behbudiy, Avloniy, Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy kompetensiyalar bilan uyg‘un ravishda bugungi o‘qituvchi timsolini shakllantirishga xizmat qiladi. Jadidlar merosi nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy ta’lim taraqqiyoti uchun metodologik asosdir. Shunday ekan, jadidlarning ilg‘or g‘oyalari bugungi ta’lim jarayonida pedagogik samaradorlikni oshirish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va o‘qituvchi kompetensiyasini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Jadid qarashlari va zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni quyidagi jadval bilan ham ko‘rsatish mumkin:

Jadidlar qarashlar	Muallif	Zamonaviy kompetensiya	Izoh
“Muallim — millatning qalb me’mori”	Mahmudxo’ja Behbudiy	Pedagogik	O’qituvchi o’quvchi shaxsini rivojlantiradi, tarbiyaviy ishlarni boshqaradi
Yangi usul maktabi, fonetika	Avloniy	Metodik	Darsni interfaol natijali tashkil qilish
Labaratoriya, g lobu, xarita	Avloni, Fitrat	AKT va innovatsion yondashuv	Texnologiyalarni qo’llash va innovatsion yondashuvlar
Nutq madaniyati muloqot	Fitrat	Kommunikativlik	O’quvchi, ota-ona va jamiyat bn samarali muloqot
Axloqiy tarbiya, vatanparvarlik	Avloniy Behbudiy	Ijtimoiy-ma’naviy	Tarbiyaviy kompetensiyalar bilan uyg’un

XULOSA

Behbudiy, Avloniy va Fitratning pedagogik tamoyillari o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni uyg’unlashtirish hamda zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Jadidlar ta’limotidagi pedagogik qarashlar zamonaviy o’qituvchiga qo’yiladigan talablarining tarixiy ildizi ekanini ko’ramiz. Ularning ilg’or g’oyalari bugungi ta’lim falsafasini boyitib, o’qituvchi faoliyatini samarali tashkil etishda muhim metodologik manba vazifasini bajarmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.
2. Fitrat A. Muallimlar uchun.
3. Behbudiy M. Maktablar uchun darsliklar.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system*. -Tashkent, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO’LAJAK OLIY MA’LUMOTLI MUTAXASSISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO’NALISHLARI. *FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.